

Toshkent shahrida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 103,0 mingtani tashkil etdi.


Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹



Toshkent shahar tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- iyul holatiga, birlik	2026-yil 1- iyul holatiga, birlik
Toshkent shahar	91 916	102 957
Mirzo Ulug'bek tumani	10 659	11 927
Yunusobod tumani	10 821	11 921
Chilonzor tumani	10 467	11 446
Yashnobod tumani	8 427	9 702
Yakkasaroy tumani	8 343	9 642
Shayxontohur tumani	8 157	9 134
Olmazor tumani	8 405	9 039
Mirobod tumani	7 515	8 185
Uchtepa tumani	7 091	7 739
Sergeli tumani	5 747	6 498
Yangiheyot tumani	3 554	4 614
Bektemir tumani	2 730	3 110

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni](#)

II. Toshkent shahrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-iyun oylarida 9 564 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 3 378 ta, boshqa xizmatlarda 2 411 ta, sanoatda 822 ta, hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 809 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025-yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2026-yil yanvar-iyun oylarida, birlik
Uchtepa tumani	561	643
Bektemir tumani	246	303
Yunusobod tumani	1079	1011
Mirzo-Ulug'bek tumani	971	1056
Mirobod tumani	686	679
Shayhontoxur tumani	825	862
Olmazor tumani	760	766
Sirg'ali tumani	626	665
Yakkasaroy tumani	831	1007
Yashnobod tumani	970	979
Yangihayot tumani	639	648
Chilonzor tumani	899	945
Toshkent sh.	9 093	9 564

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(oylik\)](#)


[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(yillik\)](#)

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 52,9 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 0,3 % ga oshgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 39 964,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 36,5 % ini tashkil etdi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Olmazor (53,9 %), Yakkasaroy (50,9 %), Mirzo-Ulug'bek (47,4 %), Yangiheyot (41,2 %), Chilonzor (40,6 %), Uchtepa (40,1 %), Yunusobod (36,2 %), Mirobod (33,2 %), Sergeli (32,0 %), Shayhontoxur (24,9 %), Bektemir (23,3 %) va Yashnobod (21,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat
ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi**



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\)dagi ulushi \(choraklik\)](#)

**Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan
qurilish faoliyati**

2026- yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 47 826,2 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 78,2 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 125,0 % ni tashkil qildi.

Tumanalar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Mirzo Ulug'bek (93,6 %), Sergeli (91,1 %), Uchtepa (88,8 %), Yakkasaroy (86,7 %), Yashnobod (85,8 %), Mirobod (76,9 %), Yangihayot (76,8 %), Chilonzor (75,9 %), Olmazor (70,9 %), Shayxontoxur (66,9 %), Yunusobod (64,0 %) va Bektemir (52,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

**Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami
hajmidagi ulushi dinamikasi**



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi \(choraklik\)](#)

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya
faoliyati**

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 33 875,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 57,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 113,0 % ni tashkil qildi.

Tumanalar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Chilonzor (76,0 %), Sirg'ali (72,8 %), Olmazor (71,7 %), Yashnobod (69,6 %), Uchtepa (62,0 %), Mirzo-Ulug'bek (56,4 %), Bektemir (54,1 %), Yunusobod (53,8 %), Yakkasaroy (53,1 %), Yangiheyot (49,7 %), Mirobod (43,8 %), Shayhontohur (38,0 %) ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi \(choraklik\)](#)

**Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan
chakana savdo faoliyati**

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 40 388,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 54,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 126,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Chilonzor (6 353,2 mlrd.so'm), Yunusobod (5 256,9 mlrd.so'm), Shayhontoxur (5 068,9 mlrd.so'm), Uchtepa (4 905,2 mlrd.so'm).

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 116 249,0 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 42,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 117,4 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Yakkasaroy (13 449,7 mlrd. so'm), Yunusobod (11 152,9 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek (10 212,3 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keldi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi
ulushi dinamikasi**



Название

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 1 224,7 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 29,1 % ni tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Olmazor 70,7 %, Yangihayot 60,1 %, Bektemir 38,8 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksporti hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksportidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 6 332,6 million AQSH dollarini yoki jami importning 47,9 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Uchtepa 83,6 %, Yakkasaroy 61,6 %, Yashnobod 60,7 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importi hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importidagi ulushi \(choraklik\)](#)

IV. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 59,3 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 150,5 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 73,5 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,9 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 70,8 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,0 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 77,0 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,3 % ni tashkil qildi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)


V. Toshkent shahrida kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun a'lo deb baholagan korxonalar ulushi 2026- yilning yanvar-iyunida esa 12,5 % ga yetgan yoki 2025- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 30,5 %ga ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarning ulushi 2026- yilning yanvar-iyunida 49,4 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 5,7 % ni tashkil etgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)



Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2026- yilning yanvar-iyunida 43,0 % ni tashkil qildi.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 53,7 % ni, o'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 3,3 % ni tashkil qildi.

Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2026- yilning 2-choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini a'lo deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoat sohasida – 13,5 % ni, qurilish sohasida – 12,4 % ni va xizmatlar sohasida – 11,8 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 71,4 %, axborot va aloqa sohasida – 60,0 %, savdo – 51,6 % ni, tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 9,0 %, Tashish va saqlash sohasida – 8,0 % ni, qurilishda sohasida – 7,3 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>

